



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

### GOOGLNING SIZ BILMAGAN IMKONIYATLARI

**Xolmirzayev O'Imasbek**

*To'raqo'rg'on tuman 2-son kasb-hunar maktabi*

*Informatika va AT fani o'qituvchisi*

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab xar bir soha avtomatik boshqaruv usuliga deyarli qariyb 95 % o'tib bo'ldi desak xato bo'lmasa kerak nazarimda. Internet tarmoq xizmatlari esa xech kimga sir emas va bu haqda bundan 20-30 yil oldin gap yuritilganda, bu xuddi ertakdek tuyular edi. Bugungi kunda IT sohasida yaratilayotgan yangiliklar, yangidan-yangi dasturlar, sohalarda qo'l boshqaruvidan avtomatik boshqaruv tizimiga o'tib borilishining shiddat bilan rivojlanib borishi, sun'iy intellect tizimining imkoniyatlarining toboro ortib borishi aynan IT sohasining chegara bilmasligidan yaqqol dalolat beradi.

Hamma sohalarda ish samaradorligi va sifatini oshirish, inson qo'l mehnatini yengillatish va avtomatlashgan tizimlarni keng yo'lga qo'yish, ish jarayonlarini tashkil etishda ishchi kuchi, vaqt va mablag'larni iqtisod qilish kabi ko'plab yo'nalishlarda aynan IT sohasining o'rni beqiyos bo'lmoqda.

IT sohasining, avtomatik boshqaruv tizimining ta'lim sohasidagi o'rni qanday? Uning afzalliklarini nimalarda ko'rishimiz mumkin?

Yaqin-yaqingacha aksariyat ta'lim dargohlarida ta'lim shakli an'anaviy shaklda tashkil etib kelinardi va auditoriyada o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari ma'lum bir talablar asosida qoliblarga solib qo'yilgan edi (ayrim rivojlangan davlatlarning dunyoning TOP-100 talikdagi oliy ta'lim muassasalari bu tizimdan mustasno, ular bu tizimdan bundan besh-o'n yillar avval voz kechishni boshlagandi).

COVID-19 pandemiyasi sabab butun dunyo mamlakatlari bo'ylab ta'lim sohasida juda katta va yuqori reyting ko'rsatkichiga ega bo'lgan ijobiy o'zgarishlar yuzaga keldi.

Bunga asosiy sabab esa ta'lim berishning an'anaviy yagona qolip asosida tashkil etiladigan auditoriyadan onlayt tarzda tashkil etiladigan yangicha ko'rinishdagi avtomatlashgan masofaviy ta'lim shaklining butun dunyo miqyosida keng qamrovli isloh etilishi, rivojlanishi bo'ldi.

Aslida pandemiya sabab onlayn ta'lim shaklining yo'lga qo'yilishi qanday o'zgarishlarga olib keldi?

Bunga eng avvalo an'anaviy sinflardan virtual sinf xonalariga ko'chib o'tish yuzaga keldi. Aslida bu tizim bundan avval ham mavjud edi, ammo aksariyat



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

ta'lim muassasalarida bu imkoniyat to'g'risida so'z yuritilsada amaliyotda qo'llash yo'lga qo'yilmagan edi.

Google korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan bir nechta xizmat turlari mavjud bo'lib, bu xizmatlardan bir nechtasi aynan shu karantin davrida juda keng ommalashib ketdi. Ayniqsa oliy ta'lim muassasalarida Google Classroom xizmati foydalanuvchilari oxirgi ikki yil ichida eng katta o'sish darajasini qayd etdi.

Google Classroom xizmati o'zi nima va u qanday imkoniyatlarga ega?

Google Classroom xizmati. Google Classroom – bu an'anaviy sinf xonasidan virtual sinf xonasiga o'tish xizmati bo'lib, unda o'qituvchi va o'quvchilar uchun juda ko'p imkoniyat va qulayliklar yaratilgan, jumladan o'qituvchi an'anaviy maktab ta'limidan farqli ravishda bir vaqtning o'zida faqatgina bitta sinf o'quvchilari yoki 20-25 nafar o'quvchilar bilan maktab siyosatida belgilangan vaqt oralig'ida emas, balki bir vaqtning o'zida bir-nechta sinflarni qamrab olish yoki o'quv auditoriyasining o'quvchilarni qamrab olish imkoniyatining yuqoriligi bilan ajralib turish bilan bir qatorda o'qituvchi o'quvchilarga yangi mavzuni tushuntirish jarayonini ovozli, video ko'rinishida, taqdimot shaklida yetkazib berishi, o'quvchilar uchun oldindan topshiriqlarni berish, o'quvchilarni topshiriqlarni bajarishini nazorat qilishi, ularning ballarini tahlil qilib borishi eski qog'ozga asoslangan an'anaviy sinfdagidan ko'ra nacha samarali ekanligi o'z isbotini topdi.

O'quvchilar uchun esa muayyan mavzu yuzasidan maktab darsliklariga asoslangan sinf xonasidan ko'ra ko'proq ma'lumotlarni izlab topish, topshiriqlarni qachon kelishini, topshiriq va resurslarni bir joyda tartibga solinishi, topshiriqlar bo'yicha o'quvchilarning masofadan turib bir-birlari bilan muhokama qilish imkoniyatlari, bajarilgan topshiriqlar uchun o'z vaqtida avtomatik baholanishi va ballarni o'z vaqtida olishi, o'qituvchi tomonidan sharxlanishi va o'quvchilar o'z fikr-mulohazalarini ochiq auditoriyada erkin bayon etishlari kabi bir qator ijobiy yutuqlarni berdi. O'quvchi uchun yana bir e'tirof etish kerak bo'lgan jihatlardan biri bu, o'quvchilarning sinf xonalari (auditoriya) ni va albatta auditoriya raxbari ya'ni o'quvchi o'zi uchun o'qituvchini tanlash imkoniyatini berdi. Bu jarayon shaffof va auditoriyaning barcha a'zolari va kuzatuvchilari nazoratida bo'lib, bu jarayonga o'quvchilarning tanloviga aralashuv yoki bosim bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Google Kalendar xizmati. Google xizmatlaridan yana biri. Bu Google Kalendar (Google Taqvim) xizmati bo'lib, bu xizmat orqali ta'lim sohasida o'qituvchi yoki o'quvchilar masofadan turib, boshqa hudud yoki mamlakatdagi hamkasblar yoki o'quvchilar bilan onlayn uchrashuvlarni tashkil etish uchun uchrashuv vaqtlarini belgilaydilar, o'quvchilar o'z o'qituvchilari yordam olish



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

uchun ro'yxatdan o'tishlari uchun ish vaqtini belgilaydilar. O'qituvchi Classroomda berilgan topshiriqlar uchun bajarilish muddatlarini yoki onlayn muloqaotlarni tashkil etish uchun vaqtlarni belgilaydi. Umuman google foydalanuvchilari uchun yana qandaydir eslatmalar yoki muxum sanalarni belgilash va foydalanuvchilar yodiga solib turish imkonini ham beradi.

Google Drive xizmati. Mazkur xizmat turi internet foydalanuvchilari uchun o'n besh gegabayt (xar berr o'yxatdan o'tganfoydalanuvchi uchun) xotira xajmiga ega bo'lgan virtual ombor vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda googleda xisob ochgan aksariyat foydalanuvchilar ham bu imkoniyatidan foydalanish ko'nikmasiga ega emaslar. Ayniqsa o'quvchi va talabalar kompyuterdagi ma'lumotlarni o'zlari bilan olib yurish uchun Flash xotira qurilmalaridan foydalanib kelishadi. Google Drive xizmatidan foydalanishning afzalligini tushunib yetgan o'quvchilarda esa bu xizmatdan foydalanish samarali yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu usul Flash xotiradan foydalanishdan ko'ra xavfsiz va qulayroqdir.

Bunga bir nechta sabablar mavjud bo'lib, Flash xotiralarning xavfsizligi ta'minlanmaganligi, kuyib qolishi, ishdan chiqishi, undagi ma'lumotlarga viruslarning zarar yetkazishi, xar doim o'zi bilan olib yurishdagi ayrim noqulayliklar, falsh xotiralarni sotib olish uchun sarflanadigan mablag'larni tejab qolish kabi bir qator ijobiy yutuqlarni keltirish mumkin. Bu xizmatdan foydalanish uchun esa sizga internet tarmog'i bilan ishlash uchun kompyuter, noutbook, planshet yoki uyali aloqa vositasi bo'lsa shuning o'zi kifoya qiladi va bu xizmatdan dunyoning qaysi nuqtasida bo'lishingizdan qat'iy nazar foydalanish imkoniyatingiz mavjud. Buning uchun sizdan faqatgina googleda ro'yxatdan o'tish talab etiladi xalos.

Uning yana bir qulaylik tomoni shundaki, siz katta hajmdagi ma'lumotlarni hakmasblaringiz yoki o'quvchilaringiz bilan baham ko'rmoqchi bo'lsangiz, ularning har biri uchun alohida yuborish shart bo'lmaydi, ularga o'z virtual xotirangizga kirish imkoniyatini taqdim etishning o'zi kifoya qiladi.

Google Doc xizmati. Aynan bu xizmat turini Microsof Word dasturining diblikati sifatida qarash mumkin bo'lib, MS Word dasturidan farqli ravishda Google Docda yaratilgan yoki yaratilayotgan hujjat avtomatik tarzda Google Driveda saqlanadi va bir vaqtning o'zida bir necha foydalanuvchi yagona doc fayli bilan ishlash imkonini beradi. Ayniqsa bu ta'lim sohasida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga to'ldirish uchun berilgan hujjatlarni yig'ib olish va jamlashda juda qo'l keladi. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak butun bir sinf o'quvchilarni o'zlari



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"**

to'g'risidagi ma'lumotlarni yagona nusxadagi hujjatga bir vaqtning o'zida kirgizish va jamlash imkonini beradi.

Google Sheet xizmati. Bu xizmat turini huddi Google Doc kabi MS Exsel dasturining dublikati sifatida qarash mumkin. MS exsel dasturida mavjud imkoniyatlar Google Shetda ham mavjud bo'lib, unda ishlashning afzalligi ham huddi Google Docniki singari bir vaqtning o'zida juda ko'p foydalanuvchilarga yagona nusxadagi jadvalda ishlash imkonini beradi. Agar ta'lim sohasida misol keltiradigan bo'lsak sinf ro'yxatida bo'lmagan o'quvchilar mazkur jadvaldan foydalanish uchun ishtirok etishdan oldin "qo'shilish so'rashi" va o'qituvchi tomonidan qabul qilinishi kerak, aks holda hech qanday kutilmagan ishtirokchilar yig'ilishlarga qo'shilmaydi.

Google Slide xizmati. Googlening bu xizmati yuqorida keltirilgan Google Doc va Google Sheet kabi imkoniyatlarni taqdim etadi, faqat bu xizmat turi taqdimotlar bilan ishlash imkonini beradi, Mazkur xizmat turini MS PowerPoint dasturining dublikati sifatida qarash mumkin. Bir vaqtning o'zida bu xizmat turida bir nechta foydalanuvchilar yagona nusxadagi taqdimotdan foydalanish, tahrirlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Umuman olganda google tizimining foydalanuvchilar uchun bugungi kunda yaratgan imkoniyatlari juda keng bo'lib, ulardan foydalanish foydalanuvchilar orasida so'nggi yillardagina kengayib bormoqda. Ko'pchilik foydalanuvchilar bu xizmatlar to'g'risida tushunchaga ega emaslar.

Agar siz o'z kompyuteringizga MS Offis dasturlar paketini (Word, Exsel, PowerPoint) o'rnatmagan bo'lsangiz va sizda google bilan ishlash imkoni mavjud bo'lsa demak siz google xizmatlaridan foydalanib hujjatlar, jadvallar va taqdimotlar bilan ishlash imkoniyatiga egasiz.

Maqolaning navbatdagi sonlarida sizlarni googlening navbatdagi xizmat turlari - Google Chat, Google Keep, Google Jamboard, Google Forms kabi xizmatlari bilan tanishtirishga xarakat qilaman.